# “Yangi davr estrada san’ati: ma’naviy, badiiy, ta’limiy kontekstda” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati” kafedrasi tomonidan “Yangi davr estrada san’ati: ma’naviy, badiiy, ta’limiy kontekstda” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi.

Yangi O‘zbekistonning madaniy taraqqiyotida estrada san’atining ma’naviy, badiiy va ta’limiy aspektlarini tadqiq va tahlil etish, estrada aktyorligi san’ati, ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini tubdan isloh etishga qaratilgan nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida ilmiy-ijodiy hamkorlikni mustahkamlash anjumanning asosiy maqsadi bo‘ldi.

Anjumanda soha mutaxassislari: poytaxt teatrlari direktorlari va bosh rejissyorlari, televideniye rejissyorlari, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistr va iqtidorli talabalar bilan birgalikda Respublikadagi madaniyat va san’atga ixtisoslashgan ta’lim muassasasalari direktorlari, shuningdek, pedagoglari faol ishtirok etdi.

Dastlab, anjumanni institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev kirish so‘zi bilan ochib, Yangi O‘zbekiston ma’naviy-madaniy qiyofasini shakllantirishda san’at, xususan estrada san’ati va ommaviy bayram, tomoshalarning tutgan o‘rni, sohadagi yutuqlar va mavjud kamchiliklar, mazkur kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ta’lim muassasalari

hamda ijodiy ishlab chiqarish tashkilotlari bilan mustahkam integratsiyani yo‘lga qo‘yish masalalariga alohida e’tibor qaratdi va anjuman ishiga omad tiladi.

Konferensiya yalpi majlisida san’atshunoslik fanlari doktori, professor Muhabbat Tulyaxodjayevaning “Zamonaviy estrada san’atining badiiy-estetik ahamiyati, televizion kliplardagi zamonaviy tendensiyalar, yutuq va kamchiliklar” mavzusidagi, professor Jahongir Mamatqosimovning zamonaviy ommaviy bayramlar rejissurasidagi innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi, soha bo‘yicha kadrlar tayyorlash holati, fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida mustahkam integratsiyani o‘rnatish, kadrlar tayyorlashdagi mavjud muammolar va yechimlar” mavzusidagi, “OXUS Culture” tashkiloti rahbari Husniddin Atoning “Ommaviy bayram va tomoshalar hamda xalqaro festivallarni tashkil etish yuzasidan xorijiy tajribalar” mavzusidagi, professor v.b. Ramz Qodirovning “Aktyorlik san’ati ixtisosliklarida sahna nutqini o‘qitish spetsifikasi, xususan estrada aktyorlarining sahnaviy nutqini rivojlantirishning spetsifik asoslari” mavzusidagi, “Rapid Company” rahbari, rejissyor, klipmeyker Rauf Nabiyevning “Zamonaviy media olamda sun’iy intellektdan foydalanishning ahamiyati va bu borada O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan ishlar” mavzusidagi, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, sanatshunoslik fanlari boyicha falsafa doktori (PhD) Charos Raximova «Milliy o‘zlikni anglashda estrada san‘atining ahamiyati» mavzusidagi, shuningdek, San‘atshunoslik fanlari nomzodi, professor Lola G‘aniyevaning “Yangi davr estrada san‘atida ijrochilik masalalari” mavzusidagi ma’ruzalari tinglandi.

Har bir ma’ruza anjuman ishtirokchilari tomonidan qizg‘in qabul qilindi va bahs-munozaralarga boy bo‘ldi.

Shundan so‘ng anjuman “Estrada san’ati dolzarb masalalari: an’anaviylik va zamonaviylik kontekstida” va “Estrada san’atida kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari”

mavzularida ikki sho‘bada o‘z ishini davom ettirdi.

Unda sohaning rivojlanishiga qaratilgan 50 dan ortiq ma’ruza tinglandi. “Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati” kafedrasi tomonidan olib borilayotgan o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy ishlar hamda xalqaro hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan taqdimot bilan tanishtirildi.

Konferensiyaning ilmiy-amaliy jihatlarini e’tiborga olib konfrensiya ishtirokchilari uchun “Estrada aktyorligi san’ati” 3-kurs talabalari ishtirokida professor Temur Rashidov tomonidan sahnalashtirilgan “Kuz” spektakli namoyish etildi. Spektakl muhokamasida uning yuksak badiiy saviyada va aynan estrada teatri spetsifikasiga mos sahnalashtirilganligi ta’kidlandi.

Anjuman yakuniga ko‘ra: estrada san’atining ijtimoiy hayotimizdagi madaniy ahamiyati tahlil qilinib, istiqbolli rejalar ishlab chiqildi. Estrada aktyorlik san’ati va ommaviy bayram va tomoshalar rejissyorlarini tayyorlashning dolzarb masalalari tahlil qilindi. Ommaviy bayram va tomoshalarni tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan jahon tajribasi tahlil qilindi, professor-o‘qituvchilarning rivojlangan davlatlarda malakasini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi. Tadbir so’ngida qatnashchilarga sertifikatlar topshirildi.








SERTIFIKAT




SHUHRAT ABROSOV
SERTIFIKAT




---

# «San’atshunoslik va madaniyatshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar» mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjumani

O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti tomonidan «San’atshunoslik va madaniyatshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar» mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman bo‘lib o‘tdi.

«Renessans» kino uyida tashkil etilgan mazkur anjumanda yurtimiz va jahon darajasidagi nufuzli mutaxassislar o’z ma’ruzalari bilan ishtriok etdilar.

Anjuman doirasida tashkil etilgan yalpi majlisni institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev kirish so‘zi bilan ochar ekan, jumladan shunday dedi: – Barchangizni ushbu nufuzli ilmiy anjumanda ko‘rib turganimdan bag‘oyatda mamnunman. Globallashuv va integratsiya shiddat bilan kechayotgan bugungi davrda milliy madaniyatni zamonaviy jarayonlarga moslashtirish, uni xalqaro miqyosda tanitish va rivojlantirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Prezidentimiz tashabbuslari asosida qabul qilinayotgan strategiyalar, davlat dasturlari va huquqiy hujjatlar soha rivojini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

San’atshunoslik va madaniyatshunoslik fanida dolzarb masalalar chuqur o‘rganilmoqda, ilmiy tahlil, bahs va munozaralar, yangi nazariy qarashlar shakllanmoqda. Shu jihatdan, “San’atshunoslik va madaniyatshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman nafaqat muammolarni muhokama qilish, balki ularning yechimlari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tashabbuslar ilgari surish uchun keng maydon vazifasini bajaradi deb ishonch bildiramiz.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri o‘rinbosari Murodjon Majidov hamda Kinematografiya agentligi Bosh direktori Shuxratilla Rizayevlar so‘zga chiqib, anjuman ishiga muvaffaqiyat tiladi. Ular o‘z nutqlarida mazkur tadbirning ahamiyatiga alohida to‘xtalib, bugungi kunda mamlakatimizda madaniyat va san’at sohalarini rivojlantirish, ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni e’tirof etdilar. Videoaloqa orqali konferensiya ishtirokchilariga tabrik so‘zi bilan Tyantszin musiqa konservatoriyasi prezidenti janob Vang Xonvey murojaat qildi.

Shuningdek yalpi majlisda Ozarbayjon davlat madaniyat va

san’at universiteti rektori, professor Jeyran MAHMUDOVAning “Ozarbayjonda madaniy ta’limning dolzarb masalalari”, Qozon davlat madaniyat instituti rektori, professor Roza AXMADIYEVAning “Rossiya xalqlari etnomadaniy an’analarini aktuallashtirish”, Oltoy davlat madaniyat instituti rektori, professor Olesya KUTKINAning “Badiiy ta’lim tashkilotlari va madaniyat muassasalarining kasbiy hamkorligi davlatning ijtimoiy-madaniy sohasini rivojlantirish sifatida”, Sungkyul universiteti professori JIN-HVAN RAning “Ijtimoiy uyg‘unlik sari: o‘zgalar qarashlarini jamiyat fikr-mulohazalariga singdirish”, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professori Muhabbat TULYAXODJAYEVAning “So‘zlovchi mizansahnalar: rejissura san’atida asarning g‘oyaviy-tematik mazmuni ifodasi sifatida”, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professori Abduxalil MAVRULOVlarning“ O‘zbekiston tarixi – madaniyat tarixi” nomli ma’ruzalari tinglandi. Yalpi majlis so’ngida ma’ruzachilar sertefikat va esdalik sovg’alari bilan taqdirlandilar.

Anjuman “San’atshunoslikning dolzarb masalalari: an’anaviylik va zamonaviylik” hamda “Ijtimoiy-madaniy faoliyatda integratsion va transformatsion jarayonlar” nomli sho‘balarda davom ettirilib, 40 ga yaqin ma’ruzalar tinglandi.

Konferensiya ma’ruzalari to‘plam sifatida nashr etildi.














天津传媒学院
TIANJIN COLLEGE OF MEDIA AND ARTS
艺术类应用型高校的转型路径
创新技术驱动下的文化更新与艺术重构
王燕 处长
科研与国际交流处




---

# Xitoy bilan hamkorlikning yangi bosqichlari

Xitoy bilan hamkorlikning yangi bosqichlari O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Baxtiyor Yakubov hamda institut Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi direktori Maksim Savochkinlar shu yilning 19–20 sentabr kunlari Xitoy Xalq Respublikasi Chanchung shahridagi “Szilin” xalqaro ta’lim universitetida bo‘lib o‘tgan konferensiyada ishtirok etishdi.

Universitet prezidenti xonum Sin He bilan kechgan samimiy muloqot chog’ida prorektor Baxtiyor Yakubov taklif uchun

minnatdorchilik bildirar ekan, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori professor Nodirbek Sayfullayevning mazkur universitetning 30 yillik yubileyi munosabati bilan bildirgan tabrigini yetkazdi.

Xonum Sin He tashrif uchun o‘zining cheksiz minnatdorligini aytarkan, ushbu uchrashuv ikkala oliygoh o‘rtasida samarali hamkorlikning yangi bosqichlari bo‘lishiga ishonch bildirdi. Shundan so‘ng Szilin Xalqaro Ta’lim Universiteti Xalqaro San’at Akademiyasi tashabbusi bilan Akademiya direktori Van Szyanxuey, prorektorlar Go Tinszyun va Van Chjo hamda professor-o‘qituvchilar jamoasi ishtirokida Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida san’at ta’limi sohasida hamkorlikka bag‘ishlangan davra suhbati bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuv universitet yubileyi tadbirlarining muhim qismi bo‘lish bilan birga, san’at ta’limi yo‘nalishida ikki tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va madaniy almashinuvni rag‘batlantirish uchun imkoniyat bo‘ldi.

Suhbat davomida Van Szyanxuey O‘zbekistonlik mehmonlarni samimiy qutlab, universitetning 30 yil davomida til ta’limi, san’at yo‘nalishlari va xalqaro hamkorlikda erishgan asosiy yutuqlari haqida ma’lumot berdi. U Xalqaro San’at Akademiyasi «san’at + xorijiy til + raqamli texnologiya» integratsiya modeli asosida innovatsion rivojlanishga alohida e’tibor qaratganini ta’kidladi va mazkur uchrashuv qo‘shma rivojlanishning yangi yo‘llarini izlashda muhim qadam bo‘lishiga umid bildirdi.

O‘z navbatida, prorektor Baxtiyor Yakubov O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining tarixi va o‘ziga xos ta’lim yo‘nalishlari haqida so‘zlab berdi. Ikki mamlakat o‘rtasida san’at ta’limi, ilmiy-tadqiqot hamkorligi va talabalar almashinuvini yanada rivojlantirish istagini bildirdi.

Muloqot jarayonida tomonlar kurslar yaratish, professor-o‘qituvchi va talabalar almashinuvi, san’at ko‘rgazmalari hamda ilmiy hamkorlik kabi yo‘nalishlarda istiqbolli hamkorlik

masalalarini muhokama qildilar. «2+2» ikki diplomli bakalavriat, «2+3» bakalavriat–magistratura hamkorlik dasturlari, shuningdek, xalqaro yozgi maktab loyihalari ilgari surildi. Ishtirokchilar mazkur uchrashuv Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida san’at ta’limi sohasida «yagona taqdir hamjamiyati»ni barpo etish yo‘lida muhim bosqich ekanini ta’kidlab, ikki mamlakat yosh avlodlari uchun yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qilishini qayd etdilar.

Shundan so‘ng uzoq muddatli do‘stlik va hamkorlik timsoli sifatida tomonlar bir-birlariga madaniy ramziy to‘hfalar topshirishdi. Rasmiy qismdan so‘ng mehmonlar universitet kutubxonasi, xalqaro ta’lim Markazi va «Global qishloq» amaliy ta’lim bazasi bilan tanishdilar. Shuningdek, ular universitetning ilmiy yutuqlari va ta’lim imkoniyatlari, talabalar tomonidan tayyorlangan amaliy san’at asarlari ko‘rgazmasi, universitet yubileyiga bag‘ishlangan ekspozitsiyalar hamda Szilin viloyati madaniyati va turmush tarzi bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘lishdi.

Ishtirokchilar universitetning 30 yillik rivojlanish yo‘lida erishgan natijalarini, uning madaniy muloqotni rivojlantirishga qo‘shgan hissasini, xalqaro mutaxassislar tayyorlashdagi tajribasini va «Bir kamar – bir yo‘l» tashabbusini qo‘llab-quvvatlashdagi faolligini yuqori baholadilar.

Xizmat safarinig ikkinchi kuni Xitoy va xorijiy davlatlar universitetlari prezidentlari konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda ta’lim, ilm-fan va innovatsiya sohalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari muhokama qilindi.


Ishtirokchilar ta’lim dasturlarini amalga oshirish, ta’lim jarayonini raqamlashtirish va qo‘shma ilmiy loyihalarni rivojlantirish bo‘yicha o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashdilar. Konferensiyada xalqaro hamkorlik zamonaviy ta’lim makonini shakllantirishda, globallashuv sharoitida samarali faoliyat

ko‘rsata oladigan yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ta’kidlandi.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti vakillarining Szilin Xalqaro Ta’lim Universitetiga bo‘lgan safari ikki tomonlama munosabatlar rivojlanishida yangi bosqich boshlanishini tasdiqladi. Erishilgan kelishuvlar va belgilangan loyihalar akademik va madaniy hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash uchun mustahkam asos yaratib berdi.








---

# Rasmiy munosabat

“Hurriyat gazetasining 2024-yil 18-sentabr chorshanba kuni nashrdan chiqqan 37 (1412)-sonida Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti ilmiy xodimi Alisher Shukurovning «Nahotki “madaniyat”da madaniyatshunoslik o‘qitilmasa?» sarlavhali maqolasi e’lon qilingan edi.

Ma’lumki, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida 2024-2025-o‘quv yilida Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv rejalar hamda fan dasturlari 2024-yil 30 avgust 1-sonli institut Kengashi tomonidan tasdiqlangan. Jumladan “Madaniyatshunoslik” fani barcha 4-kurs kunduzgi ta’lim yo‘nalishlarida aks ettirilgan.

bundan tashqari institutda «San’atshunoslik va madaniyatshunoslik» kafedrasi faoliyat olib bormoqda.70211802-Madaniyatshunoslik bo‘yicha magistratura mutaxassisigi mavjud bo‘lib bakalvriat bosqichida esa 60211800-“Madaniyatshunoslik” ta’lim yo‘nalishi Institutning Nukus filialida mavjud.

---

# Qabul komissiyasi telefon raqamlari

---

# slide_04



---

# slide_08



---

# Qabul komissiyasi telefon raqamlari 2